

## O'QUVCHI-YOSHLAR MA'NAVIY TARBIYASI MUHIM MASALA

**To'xtasinov Muhammadjon G'ulomjon o'g'li**

*Namangan viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi  
Ijtimoiy-iqtisodiy fanlar va tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi mudiri*

[muhamedjon\\_toht@mail.ru](mailto:muhamedjon_toht@mail.ru)

tel: 95-000-63-66

**Annotation:** Mazkur maqolada bugungi kun ta'lim-tarbiya tizimi oldida turgan muhim vazifalar, xususan, o'quvchi-yoshlar ma'naviy tarbiyasi va bu sohadagi kamchiliklar hamda muammolar tahlil qilingan bo'lib, ushbu masalalar bo'yicha fikr-mulohalar ilgari surilgan.

**Tayanch so'z va iboralar:** ma'naviy-axloqiy tarbiya, ta'lim islohotlari, ma'naviy muhit, jamiyat ma'naviyati, mafkuraviy immunitet, globallashuv, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, pedagog mas'uliyati, yangi metodikalar, targ'ibot tadbirlari, mediata'lim

### ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ ШКОЛЬНИКОВ-ВАЖНЫЙ ВОПРОС

*Тухтасинов Мухаммаджон Гуломжон угли, заведующий кафедрой  
методики преподавания языков и социально-экономических наук национальный  
центр обучения учителей новым методикам Наманганской области*

**Аннотация:** в данной статье анализируются важные задачи, стоящие перед системой образования, в частности, духовное воспитание учащихся. Также рассматриваются недостатки и проблемы в этой области, выдвигаются взгляды на эти вопросы.

**Ключевые слова и фразы:** духовно-нравственное воспитание, образовательная реформа, духовная среда, социальная духовность, идеологический иммунитет, глобализация, духовно-просветительская деятельность, педагогическая ответственность, новые методы, адвокационная деятельность, медиаобразование.

### SPIRITUAL EDUCATION OF SCHOOLCHILDREN IS AN IMPORTANT ISSUE

*Tukhtasinov Muhammadjon Gulomjon ogli,*

*Head of the Department of Methodology of teaching languages and Socio-Economic Sciences of national Center for teaching teachers of new methodologies of Namangan region*

**Abstract:** This article analyzes the important tasks facing the education system, in particular, the spiritual education of students. Shortcomings and problems in this area are also considered, views on these issues are put forward.



**Key words and phrases:** spiritual and moral education, educational reform, spiritual environment, social spirituality, ideological immunity, globalization, spiritual and educational activities, pedagogical responsibility, new methods, advocacy activities, media education

So‘nggi yillarda ta’lim-tarbiya sohasiga qaratilayotgan katta e’tibor, tizimni har tomonlama yuksaltirish borasida amalga oshirilayotgan qator islohotlar tufayli maktab va uning hayoti tubdan o‘zgarmoqda. Maktab ta’limiga davlatning g‘amxo‘rligi, jamiyatning munosabati keskin oshmoqda. Shu bilan birga o‘quvchi-yoshlarni yuksak darajada ma’naviy-axloqiy tarbiyalash masalasi Prezidentimiz siyosatining ajralmas qismi sifatida davlatimizning ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish bo‘yicha qabul qilgan qator huquqiy hujjatlarida ham o‘z aksini topgan.

Davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyevning joriy yil 25-may kuni maktablarni bitiruvchi o‘g‘il-qizlarga yo‘llagan tabrigida ta’kidlanganidek, “...hozirgi notinch zamonda farzandlarimizni yuksak ma’naviyat egalari, chinakam vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga alohida e’tibor qaratmoqdamiz. Keng ko‘lamdagи ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar amalga oshirilmoqda, yoshlarimiz o‘rtasida kitobxonlikni kuchaytirish, ularni adabiyot, san’at va sport to‘garaklariga yanada faol jalb etish bo‘yicha izchil ishlar olib borilmoqda”<sup>1</sup>.

Biroq, ushbu tizimdagи ishlarni tanqidiy yondashuv asosida ko‘rib chiqadigan bo‘lsak hali ham maktab ta’lim-tarbiyasida, xususan, o‘quvchi-yoshlar ma’naviy olamida qator bo‘shliqlar borligi, bu bo‘yicha amalga oshirilishi kerak bo‘lgan ko‘plab vazifalar borligini ko‘rsatmoqda.

Bugungi ba’zi bir yoshlar ma’naviyatining qisman buzilayotganligi, ayrimlarining bizga mutlaqo yot bo‘lgan urf-odat, madaniyatga berilib ketayotganligi, voyaga yetmagan yoshlar o‘rtasida turli bezorilik, jinoyat sodir etish hollari uchrab turishi barchamizni tashvishga solmoqda.

Birgina, 2022-yil 25-may kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida maktab ta’limidagi islohotlarning borishi muhokamasiga bag‘ishlab o‘tkazilgan yig‘ilishda sohaga tegishli ishlar 7 ta indikatorlar bo‘yicha tahlil qilinganda 1526 ta umumta’lim maktabining ma’naviy muhit salbiy ekanligi qayd etilib, maktablardagi ma’naviy-ma’rifiy ishlarni yana qayta tahliliy ko‘rib chiqib, bu bo‘yicha tizimli choratadbirlarni amalga oshirishni taqozo etayotgani alohida ta’kidlandi<sup>2</sup>.

Ayni shu masalada davlatimiz rahbari soha xodimlari oldiga qator vazifalarni qo‘yib, maktab ma’naviyat ostonasi bo‘lishi kerakligi, o‘quvchi-yoshlarni ma’naviy tarbiyalashda kitobxonlik, she’riyat, musiqa, tasviriy san’at imkoniyatlaridan keng

<sup>1</sup> [https://aza.uz/uz/posts/maktablarni-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga\\_375097](https://aza.uz/uz/posts/maktablarni-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga_375097).

<sup>2</sup> <https://uzreport.news/politics/prezident-maktab-ta-limidagi-islohotlarning-borishini-muhokama-qildi>

foydalanish zarurligi, 1-sinfdan 11-sinfgacha o‘quvchilar uchun ma’naviyat kitoblari chop etish dolzarbligi ko‘rsatib o‘tildi.

Darhaqiqat, milliy ta’limning muhim afzalliklaridan biri ta’lim-tarbiyaning uyg‘unligidir. Shunday ekan, o‘quvchi-yoshlar ta’lim-tarbiyasida ma’naviy-ma’rifiy targ‘ibot ishlarining ta’sirchanligini ta’minlaydigan zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, jamiyatimiz ma’naviyati va mafkuraviy immunitetini kuchaytirishga qaratilgan samarali usullarni ishlab chiqish, bu bo‘yicha o‘ziga xos milliy metodikalarni joriy qilish bugungi kunda muhim vazifamizga aylanib borayotganini chuqr tushunib olishimiz zarur.

Maktabga endigina qadam qo‘ygan bolalar uchun maktab ma’naviyat o‘chog‘i, o‘qituvchi esa ma’naviyat timsoli bo‘lishi lozim. O‘quvchining yoshi ulg‘aygani sari ma’naviy ehtiyojlari ham yuksalib boradi. Bu ehtiyojlarni to‘g‘ri anglab, ularni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash biz pedagoglarga katta mas’uliyat yuklaydi.

Qolaversa, bugungi murakkab va tahlikali zamonda yoshlarimizni turli tahdidlarga bardosh bera oladigan, mustahkam irodali va yuksak ma’naviyatli, ayni vaqtida bilimli va intellektual salohiyatli, vatanparvar insonlar etib tarbiyalash hayotiy ehtiyoj. O‘quvchi-yoshlarni Vatan va xalqqa sadoqatli, ma’nan yetuk, insonparvar, har tomonlama komil shaxslar etib tarbiyalash – eng oliy maqsadlarimizdan biriga aylangan. Bu ishda maktab ta’limining o‘rni va roli benihoya kattadir.

Bevosita maktab ta’lim-tarbiyasida o‘quvchilar uchun vatanparvarlik, mardlik, mehnatsevarlik, do‘stlik, yaxshilik, tinchlik, ota-onalar va ustozlarni ulug‘lovchi va boshqa ezgu g‘oyalar aks etgan she’rlar, g‘azallar, qo‘shiqlar, rivoyatlardan foydalanish katta ahamiyatga egadir. Xususan, o‘quvchilarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda “Madhiya”, “Shashmaqom”, “Andijon polkasi”, “Dilxiroy”, “Tanovor”, “Lazgi” kabi milliy kuy-qo‘shiqlar, shuningdek, Buxoriy va Termiziy hadislari, A.Navoiy, A.Orarov, E.Voxidov, M.Yusuf, Zulfiyaxonim, H.Olimjon, A.Obidjon kabi shoirlar hamda A.Qodiriy, Cho‘lpon, Fitrat, X.To‘xtaboyev, T.Malik, S.Ahmad, O.Yoqubov, P.Qodirov kabi yozuvchilar asarlaridan foydalanishning roli va ta’sirchanligi yuksakdir. Bu o‘rinda boshlang‘ich sinflar ma’naviyatini yuksaltirishda ertak, matal, afsona, she’r, qo‘sinq, doston, maqollardan keng foydalanish alohida muhim ahamiyat kasb etishini qayd etish lozim.

Maktablarda tashkil etiladigan ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarni tizimli ravishda qayta ko‘rib chiqib, bu borada maktab rahbarlari, ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha direktor o‘rinbosarlari, sinf rahbarlari va albatta barcha o‘qituvchi-pedagoglarning mas’uliyatini oshirish, ularni chinakkam ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylantirish, ularga ma’naviy-targ‘ibot tadbirlari masalalarida metodik ko‘mak va tavsiyalar berish, sohaga oid yangi ilmiy-uslubiy adabiyotlar nashr etish va yetkazish hamda tashkiliy chora-tadbirlarni belgilib olish muhim vazifaga aylandi.

Zero, shunday ekan ta'lismiz tizimi xodimlarining huquqiy, siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy bilimlarini doimo boyitib, takomillashtirib borish zarur. Bularsiz o'quvchilarni yoshlar ta'lismi-tarbiyasida ko'zlangan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. O'quvchilarni ma'naviy yetuk etib tarbiyalashda ustoz ma'naviyat timsoli, har jihatdan namuna bo'la oladigan yuksak axloq sohibi bo'lishi muhimdir. Shu bilan birga, ma'naviy targ'ibot va tarbiya ishlarida pedagoglar avvalo bolaning alohida shaxs, individullik xususiyatlari bor ekanligini inobatga olishi, ular bilan samimiy va sidqidildan muomalaga kirishishi lozimligini anglashi lozim. Buning uchun avvalo, o'qituvchi-pedagoglar o'z ustida ishlashi, o'z ilmiy va ma'naviy olamini boyitish ustida mehnat qilishi kerak.

Bugungi kunda faoliyat olib borayotgan 15 mingdan ziyod maktab ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinnbosarlarini, shuningdek, sinf rahbarlari va albatta barcha o'qituvchi-pedagoglarni ma'naviy-ma'rifiy sohada tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirishi masalasini ham ko'rib chiqishimiz, ular uchun muntazam rivojlantirib borish dasturlarini qabul qilishimiz darkor.

Binobarin, ertangi taqdirimizni hal qiluvchi yoshlarimiz tarbiyachisi bo'lgan bugungi kun o'qituvchi-murabbiysi ayni vaqtida pedagog, psixolog va jamiyatning o'z fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan faol a'zosi, ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi kerakligini unutmasligi lozim.

Bugungi kunda ma'naviyat sohasiga doir qator adabiyotlar mavjud. Biroq bevosita shaxs ma'naviyatini, o'qituvchi-pedagoglar ma'naviy olamini boyituvchi, bugungi globallashgan zamon xususiyatlarini hisobga olib uning jamiyat oldidagi ma'naviy vazifalarini hamda bu sohadagi tadbirlarni amalga oshirish mexanizmlarini belgilab beruvchi yangi metodik qo'llanmalarga ehtiyoj mavjud.

Fikrimizcha, ayni yuqorida masalalarni nazarda tutib, "Zamonaviy pedagog ma'naviy qiyofasi", "Ustoz ma'naviyati va mas'uliyati", "Ma'naviyat maktab ostonasidan boshlanadi", "Maktab – ma'naviyat maskani", "Yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishining o'ziga xos jihatlari" va shu kabi qator turkum mavzularda ilmiy izlanishlar olib borish, maqsadli o'quvlar, amaliy anjuman va seminarlar tashkil etish, yangi metodikalarga asoslangan o'quv qo'llanma va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

O'quvchilarni ona Vatanga muhabbat, yurtga sadoqat va umuman olganda yuksak insoniy tuyg'ular asosida tarbiyalashda to'garaklar, kitobxonlik, adabiyot va san'atning yuksak o'rmini hisobga olib o'quvchi-yoshlar uchun ham o'quv va uslubiy adabiyotlar chop etish dolzarbdir.

Umumiy o'rta ta'lismiz maktablari 1-4-sinflar o'quvchilarida ilk ma'naviy tarbiya ko'nikmalari shakllantirish maqsadida "Ma'naviyat sarchashmasi", 5-9-sinflar o'quvchilari uchun ma'naviyat va madaniyat, qadriyatlar va milliylik masalalarini nazarda tutuvchi "Ma'naviy qadriyatlar va axloq mezonlari", 10-11-sinflar uchun

yuksak fazilatlar, ezgu intilishlar va g‘oyaviy immunitetni o‘zida mujaassamlashtirgan “Yuksak ma’naviyat va mafkuraviy tarbiya” singari turkum mavzular ustida izlanishlar olib borish hamda darslik va qo‘llanmalar nashr ettirish mumkin.

Maktab ma’naviy hayotida o‘tkazilgan har bir tadbirni keng jamoatchilikka, ota-onalarga yetkazish maqsadida maktablarning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarini ishga tushirish va rivojlantirib borish, shu bilan birga bu imkoniyatdan unumli foydalanib iqtidorli, ijodkor, namunali o‘quvchilar, faol ota-onalar, ularning ibratli hayotiy faoliyatini yoritib borilishi mакtab ma’naviy hayotini yanada sog‘lomlashtirishda katta rol o‘ynaydi, deb o‘ylaymiz.

Maktablar ma’naviy qiyofasini yuksaltirishda hamkor tashkilotlar bilan olib boriladigan tashkiliy-ma’rifiy ishlar samaradorligiga ham katta e’tibor berishimiz kerak. Mahallalar, yoshlар ishlari bo‘yicha agentlik bo‘limlari, milliy gvardiya va ichki ishlar organlari, xotin-qizlar qo‘mitasi mas’ullari, tibbiyot birlashmalari, ota-onalar va boshqa tashkilotlar vakillarini mакtab ta’lim-tarbiya ishiga keng jalb qilish, o‘quvchilarni ma’naviy tarbiyalashda bu tashkilotlar imkoniyatlaridan keng foydalanish choralarini izlashimiz kerak.

Ma’naviy sohadagi tarbiyaviy ishlar mazmuni o‘quvchining yoshi, ruhiy-pedagogik xususiyatlarga mos bo‘lishi lozim. Shu bilan birga oila muhiti, mahalliy ijtimoiy muhit, albatta, diqqat e’tiborda bo‘lishi talab etiladi. Ma’naviy-axloqiy tarbiya jarayoni uzlucksiz, izchil va sobitlik bilan olib borilsagina, o‘quvchi yoshlар qalbi va ongiga yetib bora olamiz.

Shuningdek, tizimlilik, fikr, so‘z va amal birligi, shaxsiy o‘rnak ko‘rsatish tamoyili asosida tarbiyaviy jarayon konseptual asosda, yaxlit tizim va aniq chora-tadbirlar ko‘lamida, barcha bosqich va yo‘nalishlarda, ijtimoiy hayotning barcha sohalarini qamrab olgan bo‘lsagina ko‘zlagan natijaga erishish mumkin<sup>3</sup>.

Nazariyotchi olimlar va tajribali amaliyotchi pedagoglar hamkorligida yoshlар muammolarini, ularning hayotiy mo‘ljallari, ehtiyoj va qiziqishlarini maxsus o‘rganilishi lozim. Aniqlangan “diagnozlar”, ya’ni xulosalar asosida tarbiyaviy ishlarni ham tashkiliy-boshqaruv jihatdan, ham mazmun-mohiyatan yo‘lga qo‘yish, ota-onalar va farzand, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda ziddiyatli holatlarni pedagogik-psixologik jihatdan tadqiq qilinishi kerak.

Muxtasar qilib aytganda, bugungi globallashgan davr farzandlarini har tomonlama barkamol insonlar qilib tarbiyalashimiz uchun ularga dunyoviy, diniy, siyosiy-huquqiy, ma’naviy-axloqiy, jismoniy, ruhiy, tibbiy bilimlarni bera olishimiz kerak bo‘ladi. Buning uchun esa avvalo, o‘zimiz shunday salohiyatga ega bo‘lmog‘imiz darkor. Zero, donishmand xalqimiz ta’biri bilan aytganda, “tarbiyachi

<sup>3</sup> Bo‘stonov A. Globallashuv jarayonlari sharoitida yoshlар tarbiyasining dolzarb masalalari// Ta’limdagи islohotlar strategiyasida sog‘lom bola masalasi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to‘plami. – Qarshi: Nasaf, 2014. – B. 216

avvalo o'zi tarbiyalangan bo'lishi kerak". Shundagina chin ma'noda maktab ma'naviyat maskani, ustoz ma'naviyat namunasi bo'la oladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Bo'stonov A. Globallashuv jarayonlari sharoitida yoshlar tarbiyasining dolzARB masalalari// Ta'limdagi islohotlar strategiyasida sog'lom bola masalasi. Respublika ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari to'plami. – Qarshi: Nasaf, 2014. – B. 216.
2. [https://uza.uz/uz/posts/maktablarni-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga\\_375097](https://uza.uz/uz/posts/maktablarni-bitiruvchi-ogil-qizlarimizga_375097)
3. <https://uzreport.news/politics/prezident-maktab-ta-limidagi-islohotlarning-borishini-muhokama-qildi>